

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

TUYCHIYEV ALISHER JURAYEVICH

Hududiy rivojantirish, insonlar turmush tarzini yuksaltirish masalalari..... 11

RABBIMOV ELBEK ABDULLOYEVICH, JUMANAZAROV RO‘ZIMUROD

Auditorlik faoliyatining zamonaviy tendensiyalari va ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....20

MUMINOVA ELNORAKHON ABDUKARIMOVNA

Improving the methodology for assessing the quality of the corporate governance of enterprises in the textile industry.....29

QO‘ZIYEVA MAFTUNA OTABEK QIZI

Kichik biznes sektorida raqamli iqtisodiyotga o‘tishning nazariy-uslubiy asoslari.....44

JUMAYEVA ZULFIYA QAYUMOVNA

O‘zbekiston Respublikasining investitsion siyosatida Buxoro viloyatining o‘rni va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.....51

JUMANOV OTABEK SATTOROVICH

Tovar raqobatbardoshlik ko‘rsatgichlari va ularning samaradorligini oshirish.....59

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O‘G‘LI

Intellectual va texnologik salohiyat tushunchasining iqtisodiy mazmuni.....64

TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI

Sabzavot yetishtirishni moliyalashtirishning nazariy jihatlarini.....71

ABDUMALIKOV SHOXJAHON JALOLIDDIN O‘G‘LI

Raqamli muhitda tibbiyot tashkilotlari faoliyatini baholashda marketing kuzatuvining roli va muammolari.....80

САХОДАТХОН ИСМОИЛОВНА ЭРМАТОВА

Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....89

BOZOROV ELYOR BOBOQULOVICH, LATIFJONOVA ADIBA BOBIROVNA

Turizm sohasi orqali mahalliy aholi bandligini oshirish.....96

EGAMBERDIYEV MURODULLA FARXOD O‘G‘LI

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy sug‘urta tizimidan foydalanish istiqbollari.....103

SIDDIQOV MO‘MINJON YUNUSOVICH

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari...110

BEKBUTAYEV NODIRJON FAYZULLAYEVICH

O‘zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar sektorida monopoliyaga qarshi baholash indikatorlarini shakllantirish va takomillashtirish.....116

ШАХОБОВ ШОХРУХ КУРБОН ЎҒЛИ

Пахта-тўқимачилик кластери ходимлари салоҳиятини ривожлантириш стратегиясига таъсир этувчи омилларни баҳолаш.....122

JUMAYEV BAHODIR RAXMATULLAYEVICH

Mintaqada xizmatlar sohasi raqobatbardoshligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari (Buxoro viloyati misolida).....131

ESHMATOVA NODIRA RAYIMBERDI QIZI, QAHHOROVA MASHHURA BAXROM QIZI

Buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zahiralari hisobining huquqiy va me‘yoriy asoslari.....138

UO‘K: 634:635.1/8

**SABZAVOT YETISHTIRISHNI MOLİYALASHTIRISHNING
NAZARIY JIHATLARI****TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI**Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida
strategik rivojlanish va tadqiqotlar
xalqaro markazi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sabzavot yetishtirishni moliyalashtirishning nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi moliyalashtirish tushunchasi, uning sabzavotchilik tarmog‘idagi o‘ziga xos xususiyatlari, moliyaviy resurslar manbalari hamda moliyalashtirish mexanizmlarining ilmiy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, an‘anaviy va muqobil moliyalashtirish shakllarining nazariy afzalliklari tahlil qilinib, sabzavotchilikda barqaror moliyaviy ta‘minotni shakllantirishga doir ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida sabzavot yetishtirishni moliyalashtirishning tarkibiy elementlari aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari sabzavotchilikni moliyalashtirishning kompleks nazariy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sabzavotchilik, moliyalashtirish, moliyaviy mexanizm, qishloq xo‘jaligi, investitsiya, kredit, muqobil moliya.

Аннотация. В данной статье системно анализируются теоретические основы финансирования производства овощей. В исследовании рассматриваются понятие финансирования сельского хозяйства, его специфические особенности в отрасли овощеводства, источники финансовых ресурсов, а также научные подходы к механизмам финансирования. Кроме того, проанализированы теоретические преимущества традиционных и альтернативных форм финансирования и разработаны научные выводы и рекомендации, направленные на формирование устойчивого финансового обеспечения овощеводства. На основе анализа научной литературы определены структурные элементы финансирования производства овощей и раскрыта их взаимосвязь. Результаты исследования способствуют формированию комплексной теоретической модели финансирования овощеводства.

Ключевые слова: овощеводство, финансирование, финансовый механизм, сельское хозяйство, инвестиции, кредит, альтернативные финансы.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the theoretical foundations of financing vegetable production. The study examines the concept of agricultural finance, its specific characteristics within the vegetable production sector, the sources of financial resources, and scientific approaches to financing mechanisms. In addition, the theoretical advantages of traditional and alternative financing instruments are analyzed, and scientific conclusions and recommendations aimed at ensuring sustainable financial support for vegetable production are developed. Based on a review of the relevant scientific literature, the structural elements of financing vegetable production are identified, and their interrelationships are revealed. The research findings contribute to the development of a comprehensive theoretical model for financing vegetable production.

Keywords: vegetable production, agricultural financing, financial mechanism, agriculture, investment, credit, alternative finance.

KIRISH

Global o'zgarishlar hamda yuqori tendensiyalarda o'zgarib borayotgan iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish jumladan sabzavotchilikni moliyalashtirish o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Dunyo aholisining soni hamda ularning ovqatlanish darajalari kundan kunga o'sib bormoqda bu iste'mol qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarning ayniqsa sabzavotlarning sifati hamda har qanday mavsumda yangi holda bozorda muhayyo bo'lishini talab etadi. Buning uchun ularni yetishtirishni samarali tashkil etish va to'g'ri moliyalashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish talab etiladi. Moliyalashtirish nazariyalari sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi mahsulot yetishtirishni moliyalashtirishning nazariy jihatlarini tizimli ravishda o'rganish va ularning asosiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Moliyalashtirish jarayoni mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik vosita sifatida ko'riladi. Tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun sarmoyalarning jalb etilishi nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, balki eksportni kengaytirish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun asos bo'ladi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish nafaqat sohaning, balki mamlakatning umumiy rivojlanishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish bo'yicha ko'plab olimlar o'z qarashlarini turlicha bayon etishgan. Jumladan W.Murray qishloq xo'jaligini moliyalashtirish deganda fermerlarning qarz mablag'larni jalb qilishi, fermer kreditlash agentliklarining tashkil etilishi va ishlashi hamda jamiyatning qishloq xo'jaligi krediti bo'yicha manfaatlarini o'rganadigan iqtisodiy tadqiqotlarini talqin qilgan[12]. B.Tandon va S.Dhondyal esa moliyalashtirishni qishloq xo'jaligining alohida yo'nalishi sifatida ko'rib, alohida fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslardan foydalanishi bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga olishini ta'kidlab o'tgan [15]. Boshqa bir qishloq xo'jaligini moliyalashtirish kitobida esa qishloq xo'jaligini moliyalashtirishni kapitalni jalb qilish hamda undan foydalanish jarayonlarini iqtisodiy nuqtayi nazardan o'rganishni nazarda tutgan[10]. P.N.Ellinger va J.B Penson esa qishloq xo'jaligini moliyalashtirish sohasi qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari ishlab chiqaruvchilari hamda agrobiznes firmalari tomonidan qabul qilinadigan firma darajasidagi investitsiya va moliyalashtirish qarorlari bilan bog'liq "mikro" masalalardan tortib, makroiqtisodiy siyosat, qishloq xo'jaligi tovar siyosati, resurs siyosati va xalqaro savdo siyosatining mamlakat oziq-ovqat va tola tizimining moliyaviy tuzilishi va faoliyatiga ta'siri bilan bog'liq "makro" masalalargacha bo'lgan xorijiy manfaatlarini qamrab oladi [6] deb ta'rif bergan. Olimlar Vo va Ngo [18]ga ko'ra qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, qishloq xo'jaligidagi taraqqiyot va qishloq hududlarini rivojlantirish barqaror o'sishni ta'minlaydi. S.Adegbite va boshqalar qishloq xo'jaligini moliyalashtirishning mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishishdagi ahamiyatini tavsiflab, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishni qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish yoki unga ko'maklashish



uchun mablag'lar bilan ta'minlash sifatida belgilaydilar [1]. Iqtisodchi olim A.Ejiogu qishloq xo'jaligini moliyalashtirishni kelishilgan summani kelajakda qaytarish va'dasi evaziga qishloq xo'jaligi maqsadlarida hozirgi vaqtda pul, tovarlar va xizmatlardan foydalanish ustidan nazoratni qo'lga kiritish jarayoni sifatida ko'rgan [5]. R.Meyerga ko'ra qishloq xo'jaligi moliyasi, asosan, qishloq xo'jaligi sektori tomonidan fermer xo'jaligi uchun foydalaniladigan moliyaviy xizmatlar, shuningdek, butun qiymat zanjiri bo'ylab fermer xo'jaligi bilan bog'liq faoliyatlar, masalan, xomashyo ta'minoti, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qayta ishlash, ulgurji savdo va marketing deb ataladi. Fermerlar, savdogarlar yoki qayta ishlovchilar uchun aylanma mablag'lar yoki aktiv kreditlardan tashqari, u ekin yoki chorvani sug'urtalash yoki qishloq xo'jaligi texnikasini ijaraga olishni ham o'z ichiga olishi mumkin [11]. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasining 2010-yildagi hisobotiga ko'ra qishloq xo'jaligini moliyalashtirish: qishloq va shaharlarda ishlab chiqarishdan tortib marketinggacha bo'lgan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirish [7] dan iborat. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish oxir-oqibat keng ko'lamli qayta ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun asosiy shart-sharoit yaratadi. Xususan, ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish asosan ikkita yo'nalishni aks ettiradi. Birinchisi, tashkiliy va iqtisodiy usullar, ikkinchisi, moddiy-texnik usullar [3]. Ukrainalik professor L.Tranchenko iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektoridagi korxonalarni moliyalashtirish manbalarini davlat tomonidan moliyalashtirish; korxonalarning o'z moliyaviy resurslari; kredit resurslari va investitsiyalar kabi guruhlariga bo'lish mumkinligini ta'kidlagan [16]: M.Samoxoves o'z tadqiqotida qishloq xo'jaligini kreditlashga ta'sir qiluvchi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan [14]. Shunga ko'ra qishloq xo'jaligida moliyalashtirishning ko'payishi oziq-ovqat ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sishiga olib keladi, bu esa importni kamaytiradi. Import o'rnini bosish tufayli qishloq xo'jaligiga qo'shimcha investitsiyalar oziq-ovqat bozorida inflyatsiyaning oshishiga olib kelmaydi. Mamlakat valyuta tejashdan foyda ko'radi [4]. Qishloq xo'jaligi, boshqa sohalardan farqli o'laroq, o'z-o'zini ko'paytirishga ko'proq moyil. Barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotilmaydi; ba'zilari fermalarda qoladi va aylanma mablag'larni (masalan, sut, urug'lar, ozuqa) to'ldirishga xizmat qiladi. Bu mahsulot sotishdan tushadigan daromadning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, bu omil banklar tomonidan beriladigan kreditlar hajmiga ta'sir qiladi [2]. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan qo'yiladigan garov uchun yer va ekinlar ham o'ziga xosdir. Yer, asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida, garov vazifasini bajaradi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga investitsiya loyihalari uzoq muddatli kreditlash uchun zarur moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Qisqa muddatli kreditlash uchun banklar uchun qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi har qanday tashkilotning ishlab chiqarish va biznes faoliyatining asosiy natijasi bo'lgan chorvachilik va ekin mahsulotlarini garov sifatida ishlatish amaliyroqdir [17].

Iqtisodchi R.R Yunyayeva qishloq xo'jaligi kredit tizimini qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qishloq aholisini kreditlashning institutsional shakllarining butun to'plami, ya'ni moliyaviy va kredit qo'llab-quvvatlash jarayonida ularning iqtisodiy

manfaatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan normalar va qoidalar sifatida deb ta'riflaydi [20].

O'zbek olimlaridan N.R. Xoliqov o'z darsligida "Qishloq xo'jaligidagi asosiy muammolardan biri –resurslarning notekis taqsimlanishi va kichik fermer xo'jaliklarining moliyalashtirish imkoniyatlaridan chetda qolishidir. Buning uchun davlat tomonidan kichik xo'jaliklar uchun maxsus moliyalashtirish dasturlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi" ta'kidlagan [19]. R.Karimov o'z ilmiy ishlarida "Sug'urta tizimining rivojlanmaganligi va moliyaviy vositalarning chegaralanganligi qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Sug'urta tizimini modernizatsiya qilish va fermerlarga moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish kerakligini" ta'kidlagan[9]. S.Jabborov qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va moliyaviy yordamlardan foydalanishga urg'u beradi. Uning fikricha, qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi muammolarni hal qilish uchun fermerlarga nisbatan moliyaviy yordamlarning samarali taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega va ularning maqsadli va shaklli joylashuvini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi [8]. Qosimov tomonidan "Qishloq xo'jaligida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat subsidiyalarining adolatli taqsimlanishi, fermerlarning moliyaviy savodxonligini oshirish va imtiyozli kreditlash tizimini rivojlantirish zarurligi" ta'kidlangan [13].

Jumladan sabzavotchilikni moliyalashtirish qishloq xo'jaligini moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, umumiy tarmoqning muhim bir qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sabzavotchilikni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, uning eng asosiy jihati vaqt nuqtayi nazaridan kapital oqimining tezlashishini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligining boshqa sohalari kabi ushbu tarmoqning tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lib asosan tuproq darajasi, yog'ingarchilik, harorat, kasalliklar va zararkunandalarning zarar keltira olish darajasiga bog'liq bo'ladi. Lekin moliyaviy jihatdan mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy qarorlarini o'z vaqtida va aniq rejalar asosida ishlatilishi ham mahsulot hosildorligiga yuqori ta'sir o'tkazadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sabzavotchilikni moliyalashtirish nazariyalarini o'rganish uchun bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, taqqoslash, sintez va induktiv-deduktiv usullar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, qishloq xo'jaligi moliyasi bo'yicha fundamental ishlar, moliyalashtirish mexanizmlari to'g'risidagi monografiyalar tashkil etdi. Adabiyotlar tahlili orqali qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tushunchasining mohiyati va tarkibiy elementlari aniqlandi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Xorijiy olimlarni tadqiqot natijalari va xorijiy adabiyotlar asosida qishloq xo'jaligida moliyalashtirishning asoslarini qamrab oluvchi konseptual asoslari tavsifi ishlab chiqildi (1-rasm). Qishloq xo'jaligida moliyalashtirishning konseptual asoslari

to'rt asosiy yo'nalishdan iborat bo'lib, ular agrar sohaga moliyaviy resurslarning samarali, xavfsiz va barqaror taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishi qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, irrigatsiya tizimlarini yaxshilash, logistika va bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shuningdek fermerlarni moliyaviy, texnik va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish orqali davlat sektorning asosiy xatarlarini yumshatadi va ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror muhit yaratadi. Xatarlarni sug'urta qilish yo'nalishi esa hosil sug'urtasi, aktivlar sug'urtasi va investitsion risklar sug'urtasi kabi moliyaviy himoya mexanizmlarini o'z ichiga oladi.



Manba: Ushbu rasmni shakllantirishda turli iqtisodiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalarlardagi tegishli ma'lumotlar tahlil qilingan.

1-rasm. Qishloq xo'jaligida moliyalashtirishning konseptual asoslari tavsifi

Ushbu mexanizm tabiiy ofatlar, kasalliklar yoki bozor tebranishlari tufayli yuzaga keladigan zararlarni kamaytirib, kreditlar qaytmasligi xavfini pasaytiradi va investorlarga ham, fermerlarga ham ishonchni oshiradi. Kredit tizimini rivojlantirish yo'nalishi qishloq xo'jaligi subyektlarining moliyaviy resurslarga kirishini kengaytiradi. Unda imtiyozli kreditlar, davlat tomonidan subsidiyalangan kreditlar, lizing mexanizmlari va mikrokreditlar orqali kichik, o'rta hamda yirik fermer

xo'jaliklari uchun zarur aylanma va investitsion mablag'lar ta'minlanadi. Bu tizim ishlab chiqarishning kengayishiga, texnik modernizatsiyaga va yangi texnologiyalarning joriy etilishiga xizmat qiladi. Ilmiy-texnik ta'minot yo'nalishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy ilmiy ishlanmalar, innovatsion texnologiyalar va texnik taraqqiyot bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Agronomiya, seleksiya, agrotehnologiya, raqamli monitoring, avtomatlashtirilgan sug'orish, dronlar kabi ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu to'rtta yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, kompleks moliyalashtirish tizimini shakllantiradi va qishloq xo'jaligi sektori uchun barqaror, xavfsiz va innovatsion rivojlanish yo'lini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlari orqali sohani rivojlantirish va yangi imkoniyatlarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Ushbu mexanizmlar bir qator strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ularni quyidagicha kengaytirish mumkin:

- qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Sohaning rivojlanishi uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi korxonalariga moliyalashtirish orqali texnika va asbob-uskunalarni yangilash, yerlarni qayta tiklash, hamda zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini joriy qilish imkoni yaratiladi. Bu sohaning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yordam beradi.

- ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatli mahsulot yetishtirish. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish jarayonida qo'shimcha investitsiyalar orqali mahsulot hajmini oshirish va sifatni yaxshilash imkoniyati tug'iladi. Xususan, serhosil urug'lik va mineral o'g'itlarni xarid qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi hududlarni ishlab chiqarishga jalb qilish orqali sohada yuqori samaradorlikka erishiladi.

- ekologik barqarorlik va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish faqat iqtisodiy manfaatlarnigina emas, balki ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslarini tejash, cho'llanishning oldini olish va organik qishloq xo'jaligi usullarini qo'llab-quvvatlash orqali barqarorlikni ta'minlash mumkin.

- hududlarda aholi bandligini ta'minlash va turmush sifatini oshirish. Qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish orqali qishloq joylarida yangi ish o'rinlari yaratish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyati tug'iladi. Moliyalashtirish dasturlari turmush sharoitini yaxshilashga, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga va aholining daromadlarini ko'paytirishga yordam beradi.

- raqobatbardoshlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish orqali mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarishga va eksportni ko'paytirishga erishish mumkin. Eksportbop

mahsulotlarni yetishtirish uchun innovatsion ishlanmalar, sifatni nazorat qilish tizimlari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

- ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Qishloq xo'jaligida kadrlarni tayyorlash va ularning malakalarini oshirishga qaratilgan moliyalashtirish dasturlari sohaning barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Zamonaviy bilim va texnologiyalardan foydalanish mahsulotlar hajmi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning moliyalashtirish bo'yicha tushunchalar tahlil qilindi va mualliflik talqini shakllantirildi. Shu nuqtayi nazaridan bizning fikrimizcha sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish bu moliyaviy resurslar (o'z mablag'lari, subsidiyalar, kreditlar, grantlar va b.)ning aniq maqsadli va o'z vaqtida sarflanishi hamda mahsulot yetishtirishning barcha bosqichlaridagi xarajatlar, xatarlar va kutilayotgan natijalarni to'liq hisobga olgan holda mahsulot yetishtirish faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy jarayon.

Sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish — bu sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida moliyaviy mablag'lardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlari va kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan, resurslar va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy jarayondir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sabzavotchilikni moliyalashtirish - bu nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ularni samarali boshqarish, tabiiy va bozor risklarini hisobga olgan holda rentabellikni ta'minlash jarayonidir. Sabzavotchilik tarmoqlarining moliyalashtirish tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mavsumiylik, yuqori risklilik, qisqa muddatli investitsiyalar ustunligi va texnologik xilma-xillik bilan tavsiflanadi. Samarali moliyalashtirish mexanizmi an'anaviy va muqobil moliya manbalarini maqbul nisbatda uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bir moliyalashtirish shakliga haddan tashqari bog'liqlik moliyaviy barqarorlikni pasaytiradi. Sabzavot yetishtiruvchilarning moliyaviy savodxonligi va boshqaruv malakasi moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Davlat tomonidan sabzavotchilikni moliyalashtirish tizimini tartibga solish, sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish va imtiyozli kreditlash dasturlarini joriy etish zarur.

Takliflar:

1. Sabzavotchilik uchun maxsus moliyaviy mahsulotlar mavsumiy kreditlar, hosil sug'urtasi, mikrolizing ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi.
2. Sabzavot yetishtiruvchilar uchun kredit kooperativlari va qishloq xo'jaligi mikrokredit tashkilotlarini rivojlantirish zarur.
3. Sabzavot yetishtiruvchilarga moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'quv dasturlari va maslahat xizmatlari tashkil etish maqsadga muvofiq.
4. Zamonaviy sabzavotchilik texnologiyalari issiqxonalar, gidroponika uchun davlat tomonidan imtiyozli kredit dasturlari va subsidiyalar tizimini kengaytirish lozim.

5. Sabzavotchilikda blokchain texnologiyalari asosida moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish va savdo moliyalashtirishni rivojlantirish istiqboldagi yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

6. Sabzavot mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun eksport kreditlari va valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Sabzavotchilikni moliyalashtirish nazariyasi va amaliyotini yanada chuqurroq o‘rganish, mamlakat sharoitiga mos moliyalashtirish modellarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlarda empirik ma’lumotlar asosida moliyalashtirish samaradorligini baholash va optimal moliyalashtirish strategiyalarini aniqlash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adegbite S.A., Ogunrinola I.O., Ayoola J.B. Agricultural Financing and Economic Growth: A Review. Journal of Agricultural Economics, 2020. p. 30.

2. Асанканов А. З. Кредитование сельского хозяйства, реалии и перспективы // Известия ВУЗов Кыргызстана. 2015. № 3. С. 204–206.

3. Аскеров Р. А. Агросвит № 13, 2012. Ст. 39.
http://www.agrosvit.info/pdf/13_2012/10.pdf

4. Беспехотный Г. В., Барышников Н. Г., Самыгин Д. Ю. Соотношение источников финансирования сельского хозяйства // Нива Поволжья. № 3 (20), август 2011. Ст. 4. <https://cyberleninka.ru/article/n/sootnoshenie-istochnikov-finansirovaniya-selskogo-hozyaystva/viewer>

5. Ejiogu A.O. Principles and Practice of Agricultural Credit Management. Enugu: Snap Press, 2011. p. 92–104.

6. Ellinger P.N., Penson J.B. Agricultural Finance: An Introduction to Micro and Macro Concepts. Wiley-Blackwell, 2016. p. 92.

7. International Fund for Agricultural Development (IFAD). Rural Finance Policy. Rome: IFAD, 2010. p. 12.

8. Jabborov S.Sh. Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va moliyaviy yordamlar. Toshkent, 2021.

9. Karimov R.A. Qishloq xo‘jaligi sektorida moliyaviy risklarni boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.

10. Lee W.F., Boehlje M.D., Nelson A.G., Murray W.G. Agricultural Finance. 8-nashr. Ames: Iowa State University Press, 1988. p. 612.

11. Meyer R.L. Financing Agriculture and Rural Areas in Sub-Saharan Africa: Progress, Challenges and the Way Forward. IAPRI Working Paper, 2011.

12. Murray W.G. Agricultural Finance. Iowa State University Press, 1953. p. 450.

13. Qosimov O.T. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining roli. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti, 2020.

14. Самоховец М. П. Система кредитования сельского хозяйства: автореф. дис. ... канд. экон. наук. СПб., 2010. Ст. 11.
<https://rep.polessu.by/handle/123456789/7960>
15. Tandon B.B., Dhondyal S.P. Agricultural Finance in India. Chaitanya Publishing House, 1962. p. 520.
16. Транченко Л.В. Современные технологии управления. № 5(53), 2015.
<https://sovman.ru/article/5307/>
17. Трушин Ю. В. Экономическое регулирование сельского хозяйства Российской Федерации на основе развития системы кредитования (теория, методология, практика): автореф. дис. ... канд. экон. наук. М., 2010.
18. Vo D.H., Ngo T.N. Agriculture Finance and Economic Growth in Rural Areas. International Journal of Finance & Banking Studies, 2018. p. 22–31.
19. Xoliqov N.R. Fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2018.
20. Юняева Р.Р. Государственное регулирование системы кредитования в сельском хозяйстве: теория, методология и практика: автореф. дис. ... док. экон. наук. М., 2010. Ст. 12 <https://www.dissercat.com/content/gosudarstvennoe-regulirovanie-sistemy-kreditovaniya-v-selskom-khozyaistve-teoriya-metodologi/read>

